



MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA
UNUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH

Jovliyeva Marjona Panji qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Musiq ta'lim

yo'nalishi 1-bosqich magistranti

marjonajovliyeva55@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15421895>

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy manfaatlar bilan umumbashariy muammolar o'rtasidagi bog'liqlik, O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi tashabbuslari, xususan Orolbo'yi ekologik inqirozi, mintaqaviy xavfsizlik va iqlim muammolariga yondashuvi tahlil etiladi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik, ekologik diplomatiya va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida olib borilayotgan faoliyat yoritiladi.

Kalit so'zlar Milliy manfaatlar, umumbashariy muammolar, O'zbekiston, ekologik xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi..

Bugungi kunda dunyo miqyosida yuzaga kelayotgan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar barchaning e'tiborini global mas'uliyat va hamkorlikka qaratmoqda. Har bir davlat o'zining milliy manfaatlarini himoya qilgan holda, umumiy tahdidlarga qarshi kurashishda faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston ham o'z milliy siyosatini umumbashariy muammolar – iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi global muammolar bilan uyg'un holda olib bormoqda. Bu esa milliy manfaatlar asosida xalqaro barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi yondashuvning yorqin namunasi hisoblanadi. Yaqinda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Tadbirkorlik va fermerlikni qo'llab-quvvatlash markazi ta'sis chiligidagi "Taraqqiyot" siyosiy ta'lim markazi tomonidan O'zLiDeP hududiy partiya kengashlarida Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasiga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlari yakunlandi. Ma'lumki, mamlakatimizni 2017 — 2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilin Milliy iqtisodiyotni isloh qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli ishlar shular jumlasidandandir. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini



kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Zamon juda tez, mislsiz shiddat bilan o'zgarayotgan, jahonda global inqiroz, notinchlik, oziq-ovqat tanqisligi va boshqa buhronlar davom etayotgan hozirgi murakkab davrda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bardavom bo'lishini ta'minlash, islohotlar poydevorini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega masala. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug'vor maqsadlar bilan yashamoqda. Ushbu maqsadga etish borasidagi serqirra faoliyatning tizimli va samarali tashkil etilishi, ishlarimizning samaradorligiga erishish islohotlarimizning mazmun mohiyati va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.

Global dunyoda har bir davlat o'zining milliy manfaatlarini ustuvor deb bilgan holda, dunyo miqyosidagi umumiy muammolarga befarq bo'lib qola olmaydi. XXI asrda insoniyat duch kelayotgan ekologik muammolar, pandemiyalar, terrorizm, suv tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi, migratsiya kabi masalalar millatlar chegarasini tan olmaydi. Shu bois, har qanday davlat bu muammolarga yondashishda o'zining milliy manfaatlarini saqlagan holda xalqaro mas'uliyat bilan harakat qilishi talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi ham o'zining tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasida bu prinsipga qat'iy amal qilmoqda. Davlatimiz "Avval inson, so'ngra jamiyat va davlat" tamoyiliga asoslangan holda, milliy manfaatlar bilan umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga intilmoqda. Milliy manfaat nima va u qanday shakllanadi? Milliy manfaatlar – bu davlat va jamiyatning uzoq muddatli siyosiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy manfaatlaridan iborat bo'lib, ular davlat mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, xalq farovonligi, xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Umumbashariy muammolar va ularning dolzarbligi So'nggi yillarda quyidagi umumbashariy muammolar global xavotir uyg'otmoqda: Iqlim o'zgarishi va global isish Ekologik inqiroz, xususan, Orol fojiasi Suv resurslarining tanqisligi Pandemiyalar va sog'liqni saqlashdagi tahdidlar Migratsiya va qochqinlar masalasi Xalqaro terrorizm va geosiyosiy beqarorlik O'zbekistonning yondashuvi: milliy manfaat + global mas'uliyat O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi, Markaziy Osiyo mintaqaviy anjumanlari va boshqa xalqaro maydonlarda doimo



xalqaro hamkorlik, mintaqaviy barqarorlik, ekologik xavfsizlik masalalarini ilgari surib kelmoqda. Orolbo'yi ekologik inqiroziga qarshi kurash – bu nafaqat milliy muammo, balki xalqaro e'tiborni talab qiluvchi masala sifatida tan olingan."Yashil iqtisodiyot"ga o'tish – bu nafaqat O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasi, balki iqlim o'zgarishiga javob beruvchi ekologik manfaatlarga xizmat qiladi.Afg'oniston bo'yicha tinchlik tashabbuslari – mintaqaviy xavfsizlik bilan birga global tinchlikka xizmat qiladi.4. Umumbashariy muammolarga milliy asosda yechim izlash yo'llarillm-fan va texnologiyalar orqali yechimlar ishlab chiqish (masalan, suv tejovchi texnologiyalar).Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirish (UNDP, FAO, BMT, IHT).Yoshlarga va fuqarolik jamiyatiga global muammolar haqida ma'lumot berish, ularni faol ishtirok etishga jalb qilish.Madaniy-gumanitar diplomatiya orqali global muloqotni rivojlantiMilliy manfaatlardan kelib chiqib, umumbashariy muammolarga yondashish – bu XXI asrda har bir davlatning yuksak siyosiy madaniyatidan dalolat beradi. O'zbekiston bu borada muvozanatli siyosat olib borib, o'z manfaatlarini xalqarohamkorlik, mintaqaviy barqarorlik va insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirmoqda. Kelgusida ham bu yondashuv nafaqat O'zbekistonning xalqaro mavqeini mustahkamlashga, balki global muammolar yechimida faol o'ringa ega bo'lishiga zamin yaratadi.

Shu tarzda, yurtimiz taraqqiyoti asosiy ustuvorliklardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi farmoni "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu Strategiya 7 yo'nalish va 100 ta maqsadlarni o'z ichiga qamrab olgan.Ta'kidlash joizki, milliy rivojlanish yo'lida orttirgan tajribamizdan kelib chiqib, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida barcha soha va tarmoqlar, mintqa va hududlar, xususan, har bir mahalla bo'yicha o'z oldimizga yanada yuksak vazifalar qo'yilgan.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi yo'nalishlari quyidagilardaniborat:Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yoashish;mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.2022 yilda strategiyani amalga



oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so'm va 11,7 mlrd dollar ajratiladi. Keng manoda ushbu Strategiyada O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kelgusi 5 yillikka mo'ljallangan ulkan rejalarini va uni hayotga tadbiq etishning real mexanizmlari belgilab berilgan. Strategiya barcha bo'g'indagi partiya tashkilotlari uchun amaliy harakatlar dasturiga aylandi. O'quv mashg'ulotlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDep fraksiyasi deputatlari, siyosatshunos olimlar va boshqa ekspertlar ishtirokida Zoom dasturi orqali o'tkazildi. "Yangi O'zbekiston" tushunchasi nimani anglatadi?", "Taraqqiyotning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega?", "Jamiyatning yangi qiyofasi" deganda nimalar nazarda tutilmoqda?", "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish tamoyillari qanday?", "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga nimalar to'g'anoq bo'lmoqda?" kabi savollar va partiyaning dasturiy maqsadlarini ruyobga chiqarish - ushbu o'quv mashg'ulotlari doirasidagi muloqotlar chog'ida ko'tarilgan asosiy masalalar sirasiga kiradi.

Xulosa, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash O'zbekistonning strategik maqsadlaridandir. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilinayotgan dasturlar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va global bozorlarda munosib o'rin egallash imkonini bermogda. Kelgusida bu jarayonlarni davom ettirish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali yanada barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2020.
2. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni.- T.: O'zbekiston, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: Sharq, 1997.
4. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: O'zbekiston,
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.:O'zbekiston, 2017.
- 7.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.:O'zbekiston, 2017.
- 8.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.uz>
- 9.2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi // <https://www.lex.uz>

